




SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Samarqand viloyati
kichik tadbirkorlik
2021- yil yanvar-dekabr**


Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **73,4** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **13,5** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylari davomida **10,8** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **24,9** foizga ko'p demakdir.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **5 060** ta, sanoatda **1 896** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **918** ta, qurilishda **447** ta, yashash va ovqatlanishda **1 040** ta, axborot va aloqada **230** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

94,8



Sanoat

42,5



Qurilish

84,5



Investitsiya

54,3



Savdo

80,4



Xizmatlar

67,9



Eksport

45,6



Import

38,0



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

40 724




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

10 814

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, ulushi % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

37,4%



Sanoat

19,6%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9,1%



Qurilish

8,0%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

9,5%



Tashish va saqlash

2,8%



Axborot va aloqa

1,8%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,0%




Boshqa faoliyat turlari

9,8%



1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020 y. yanvar-dekabr

■ 2021 y. yanvar-dekabr


2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri – 25,3 %, Pastdarg'om tumani – 9,8 %, Urgut tumani – 8,2 %, Samarqand tumani – 8,0 %, Ishtixon tumani – 6,1%, Oqdaryo tumani - 5,6 %, Kattaqo'rg'on tumani - 5,2 % hissalariga to'g'ri keldi.




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



■ 2020- y. yanvar-dekabr ■ 2021- y. yanvar-dekabr

Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
5 060 ta

Sanoatda
1 896 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
918 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
1 040 ta


Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




2021- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 13,5 birlikni tashkil etdi.



Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*




2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 21,3 birlik, Payariq tumanida 16,5 birlik, Samarqand va Bulung'ur tumanlarida 14,4 birlik, Kattaqo'rg'on shahrida 14,7 birlik, Ishtixon tumanida 12,7 birlik, Oqdaryo tumanida 13,5 birlikni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 241,9 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 45,6 % ini tashkil etdi.



Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


2021 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Nurobod, Payariq, Qo'shrabot va Kattaqo'g'on tumanlarida – 100,0 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 87,9 %, Oqdaryo tumanida 76,1 %, Bulung'r tumanida-72,4 %, Urgut tumanida – 71,5 % va Pastdarg'om tumanida – 41,2 %ni, eng past ko'rsatkich Paxtachi tumanida – 15,2 % ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **528,6** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **38,0** % ini tashkil etdi.



2021 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Qo'shrabot tumanida 100,0 %, Bulung'ur tumanida 99,5 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 99,0 %, Payariq tumanida – 91,3 %, Kattaqo'rg'on tumanida – 82,6 %, Ishtixon tumanida – 88,7 %, Urgut tumanida – 80,8 %. Eng past ko'rsatkich Toyloq tumanida - 19,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi mlrd. so'm

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 691,0** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (2 663,9 mlrd. so'm), Urgut (1 300,2 mlrd. so'm), Samarqand (1 017,9 mlrd. so'm), Jomboy (1 114,9 mlrd. so'm) va Bulung'ur (562,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shrabot tumanida (86,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **42,5** % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bulung'ur, Qo'shrabot, Nurobod va Oqdaryo (100,0%), Kattaqo'rg'on tumani (80,7%), Kattaqo'rg'on shahri (79,9%), Urgut tumani (75,7%), Pastdarg'om tumani (53,3%), Samarqand tumani (58,3%), Payariq tumani (46,7%), Jomboy (43,4%), Paxtachi (40,6%) ni tashkil etdi. Narpay tumani (20,4%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **16 893,4** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **80,4** % ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **12,1** % ga oʻsishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (4693,5 mlrd. soʻm), Kattaqoʻgʻon shahri (1266,1 mlrd. soʻm), Urgut (2030,1 mlrd. soʻm), Pastdargʻom tumani (1022,2 mlrd. soʻm), Bulungʻur (909,8 mlrd. soʻm), Kattaqoʻgʻon (865,9 mlrd. soʻm) va Payariq (794,6 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

hajm, mlrd. soʻm

oʻsish surʻati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6 109,5** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **84,5 %** ini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **115,2 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (2123,6 mlrd. soʻm), Urgut (345,3 mlrd. soʻm), Oqdaryo (410,2 mlrd. soʻm), Samarqand (397,3 mlrd. soʻm), Payariq (457,2 mlrd. soʻm), Jomboy (243,9 mlrd. soʻm) hamda Ishtixon (323,5 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.



■ hajm, mlrd. soʻm ● oʻsish surʻati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **12 676,0** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,9 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʼati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **119,9 %** ni tashkil qilgan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Samarqand shahri (3789,9 mlrd. soʻm), Samarqand (1065,7 mlrd. soʻm), Pastdargʻom (925,1 mlrd. soʻm), Urgut (945,2 mlrd. soʻm), Toyloq (719,6 mlrd. soʻm), Jomboy (655,3 mlrd. soʻm) va Kattaqoʻrgʻon (642,2 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 88,6 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 79,3 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,3 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,0 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1 484** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 565 (38,1 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 807 (54,4%) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 112 (7,5%) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,7 % (99 ta), sanoatda – 19,8 % (294 ta), qurilishda – 8,4 % (125 ta), savdoda – 38,9% (577 ta), xizmatlar sohasida – 26,2 % (389 ta)ni tashkil etdi.

2021- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (352 ta), Samarqand (122 ta), Urgut (121 ta), Pastdarg'om (114 ta), Payariq (95 ta), Kattaqo'rg'on (81 ta), Ishtixon (79 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning IV choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 44,0%ni, savdoda 40,7%ni xizmatlar sohasida 36,5%ni, sanoatda 34,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 56,6 %ni, sanoatda 57,5%ni, savdo va xizmatlar sohasida 54,0% ni tashkil etdi.

2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida 51,2%ni, savdoda 49,4 %, xizmatlar sohasida 49,1%ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 56,5 %ni, sanoatda 47,7%ni, savdoda sohasida 46,1%ni tashkil etdi.

